

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti
Rektori
I. Madjidov
“10» 07 2026-yil

IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIV TA'LIM
BO'YICHA BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHLARI
UCHUN GEOGRAFIYA FANIDAN IMTIHON
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI
(ta'lim yo'nalishlarga mos fan bo'yicha)

Toshkent - 2026

Tuzuvchilar:

O'zMU Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti
Tabiiy geografiya kafedrası dotsenti,
geografiya fanlari nomzodi Ibragimova R.

O'zMU Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti
Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrası dotsenti,
geografiya fanlari nomzodi Egamberdiyeva M.

Taqrizchilar:

O'zMU Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti
Tabiiy geografiya kafedrası dotsenti,
geografiya fanlari falsafa doktori (PhD) Avezov M.

O'zMPU Tabiiy fanlar fakulteti
Geografiya va o'qitish metodikasi kafedrası dotsenti,
geografiya fanlari falsafa doktori (PhD) Rasulov A.

Mazkur dastur Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'quv-
uslubiy Kengashining 2026-yil "___" ___dagi ___-sonli bayonnomasi bilan
ma'qullangan.

KIRISH

Mazkur dastur ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim bo'yicha bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga Geografiya fanidan bo'lib, unda tabiiy geografiya hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga tegishli ma'lumotlar o'rin olgan.

Tabiiy geografiya qismida Quyosh sistemasi, geografik qobiq va uning qismlari - litosfera, atmosfera, gidrosfera, biosfera, hamda geografik qobiqning tabaqalanishi, inson xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy geografik jarayonlar, O'zbekiston tabiiy geografiyasi, O'zbekiston hududining tabiiy geografik rayonlashtirilishi, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya qismida esa iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy termin va tushunchalari, O'zbekiston Respublikasining geografik o'rni va uning xo'jalik rivojlanishiga ta'siri, O'zbekiston iqtisodiyotining tarmoqlar tuzilishi, O'zbekistonda iqtisodiy rayonlashtirish, Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi, Dunyo siyosiy xaritasining shakllanishi va rivojlanishi, dunyo siyosiy xaritasida O'zbekistonning tutgan o'rni kabi mavzular o'rin olganki, ushbu mavzular abituriyentlar bilimni baholashda muhim o'rin tutadi. Abituriyentlarning bilimlari tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Fanning maqsadi va vazifalari

Geografiya fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur abituriyentlarning shu sohaga bo'lgan qiziqishi, bilim darajasi va kelajakda geografiya ta'limi kasbi bo'yicha faoliyat yuritish kompetentsiyalarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

Kasbiy imtihonda abituriyentlar, avvalo, geografiya fanining jamiyat rivojida tutgan o'rni, yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati, o'zbek geograflarining jahon hamjamiyatidagi o'rni va geografiya ta'limini yuksak rivoj topganligi haqida asosli va mantiqli fikr-mulohaza yuritish talab etiladi.

Abituriyentning bilimiga qo'yiladigan talablar

Geografiya fanidan imtihoni bor boshqa ta'lim yo'nalishlari bo'yicha geografiya fanining 2026-2027 o'quv yili kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi bo'yicha "Tabiiy geografiya" hamda "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" fanlarining har biriga quyidagi talablar qo'yiladi: "Tabiiy geografiya" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abituriyent:

Tabiiy geografiyaning o'rganish obyekti, predmeti va vazifalari. Uning xo'jalikdagi o'rni, amaliy ahamiyati. Fanning rivojlanish tarixi, Yer yuzining kashf etilishi va o'rganilish tarixi.

Quyosh sistemasi va Yer sayyorasi. Yerning Quyosh sistemasidagi o'rni. Yerning shakli, harakatlari, ularning geografik oqibatlari. Gradus to'ri, geografik koordinatalar. Joy plani va geografik xaritalar. Azimut. Mashtab. Joyning topografik plani. Geografik xarita.

Litosfera – Yerning tosh qobig'i (Yer po'sti). Yerning ichki tuzilishi. Yerning tosh qobig'i, Yer po'sti. Yer yuzi relyefini hosil qiluvchi ichki va tashqi jarayonlar.

Atmosfera – Yerning havo qobig'i. Havo qobig'ining tarkibi, tuzilishi. Yerning radiatsiya balans. Albedo. Havo harorati. Havo bosimi va shamollar. Ob-havo va iqlim. Iqlim mintaqalari, turlari.

Gidrosfera – suv qobig'i. Gidrosferaning tarkibiy qismlari. Dunyo okeani. Quruqlikdagi suvlar. Daryolar, ko'llar va muzliklar. Botqoqliklar. Yer osti suvlari.

Biosfera – hayot qobig'i. Biosfera, uning tarkibi. Tabiatdagi o'rni. Biosferaga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Organizmlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar. Biosferaga inson ta'siri.

Geografik qobiq. Umumiy xususiyatlari, chegaralari. Gorizont va vertikal tabaqalanishi. Umumiy geografik qonuniyatlar. Geotizimlar. Yer yuzini tabiiy geografik rayonlashtirish.

Inson xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy geografik jarayonlar. Tabiiy geografik jarayonlar. Denudatsiya. Erozion jarayonlar. Jarlanish va irrigatsiya eroziyasi. Gravitatsion jarayonlar. Tuproqning sho'rlanishi, qatqaloq hosil bo'lishi, botqoqlanish jarayonlari.

O'zbekiston tabiiy geografiyasi. O'zbekistonning geografik o'rni, geologik tuzilishi, relyefi va orografiyasi, iqlimi va gidrografiyasi, tuproqlari, o'simlik va hayvonot olami, ularning geografik tarqalishidagi xususiyatlar.

O'zbekiston hududining tabiiy geografik rayonlashtirilishi. Tekislik va tog'oldi-tog' kichik provinsiyalari, ularning o'zaro bog'liqligi va tafovutlari. Tekislik kichik provinsiyasi okruglari: Ustyurt, Orol, Quyi Amudaryo, Qizilqum, Quyi Zarafshon. Tog' oldi-tog' kichik provinsiyasi okruglari: Farg'ona, Chirchiq-Ohangaron, Mirzacho'l, O'rta Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo okruglarining tabiiy geografik xususiyatlari va tavsifini bilishi kerak.

"Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abituriyent:

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot obyekti va predmeti. Maqsad va vazifalari. Uning fanlar tizimida tutgan o'rni va amaliy ahamiyati. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy termin va tushunchalari. Hududiy mehnat taqsimoti. Ixtisoslashuv. Hududiy ishlab chiqarish majmualari. Iqtisodiy rayonlar. Iqtisodiy geografik o'rni.

O'zbekiston Respublikasining geografik o'rni va uning xo'jalik rivojlanishiga ta'siri. O'zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslari. Ularning milliy iqtisodiyotni shakllanishi va rivojlanishidagi roli.

O'zbekiston Respublikasi aholisi. Aholi soni, tadrijiy o'zgarishlari va joylashishi. Aholining tarkibi va takror barpo bo'lishi. Mehnat resurslari.

O'zbekiston iqtisodiyotining tarmoqlar tuzilishi. Tarmoqlararo majmualar. Yoqilg'i-energetika, metallurgiya, kimyo, mashinasozlik va metalni qayta ishlash, qurilish materiallari, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash, yengil va oziq-ovqat sanoati. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. Dehqonchilik va chorvachilikni hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi. Transport va uning turlari. Aholiga xizmat ko'rsatish sohalar geografiyasi.

O'zbekistonni iqtisodiy rayonlashtirish. Iqtisodiy rayonlarning xo'jalik rivojlanishi xususiyatlari. Toshkent iqtisodiy rayoni. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni. Farg'ona iqtisodiy rayoni. Samarqand iqtisodiy rayoni. Buxoro-Navoiy iqtisodiy rayoni. Qashqadaryo iqtisodiy rayoni. Surxondaryo iqtisodiy rayoni. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari.

Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Jahon mamlakatlarining tabiiy sharoiti va resurslari. Jahon aholisi va uning joylashishi. Jahon xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlari. Tarmoqlar tarkibi. Jahon sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti. Jahon mamlakatlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Global muammolar.

Dunyo siyosiy xaritasining shakllanishi va rivojlanishi. Mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'ra turlari. Mintaqalar va mamlakatlarning dunyo siyosiy xaritasida tutgan o'rni va roli. Dunyo siyosiy xaritasida Markaziy Osiyo davlatlari va O'zbekistonning tutgan o'rni kabilarni bilishi kerak.

Imtihon natijalarini baholash mezoni

Imtihon suhbat shaklida o'tkaziladi hamda suhbat natijasi o'tdi yoki o'tmadi shaklida baholanadi.

Imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Imtihon komissiyasi faoliyati 2026/2027 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Geografiya fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha imtihon komissiyasi tarkibi odatda uch nafar a'zodan kam bo'lmagan holda tashkil etiladi.

Imtihon natijalari uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi.

Geografiya fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha imtihon natijalaridan norozi abituriyentlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha appelatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Appelyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appelyatsiya komissiyasi imtihonni o'tkazgan oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab, 24 soat ichida appelyatsiya komissiyasiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

Appelyatsiya komissiyasi abituriyentning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirilgan murojaatini yuzma-yuz abituriyentning ishtirokida ko'rib chiqadi va yakuniy qarorni beradi.

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi

Z. Raxmonov